Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320346

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH, TASDIQLASH VA TAQDIM ETISH AMALIYOTI

NORQULOVA QUTLUG`NIGOR OLOVIDDINOVNA
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: abdurazoqovaqutlugnigoor@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar tuzish, tasdiqlash hamda taqdim etishning amaliyoti o`rganiladi. Unda moliyaviy hisobotlar tuzish, tasdiqlash hamda taqdim etishning dasturiy majmua orqali elektron tarzda amalga oshirilish jihatlari ko`rib chiqiladi. Shuningdek, budjet tashkilotlarida raqamli iqtisodiyotning joriy etilganligi mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash, moliyaviy intizom va nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: budjet hisobi, budjet hisobi standartlari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliya yili, tahlil.

Bugungi kunda davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirdi.

"Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan." [258]Moliyaviy hisobotlarning elektron shaklda jo'natilishi – bu hisobotlarning tezkor, aniq va xavfsiz tarzda davlat moliyaviy nazorat organlariga taqdim etilishini ta'minlaydigan zamonaviy amaliyotdir.O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini tizimi va budjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlari bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida xozirgi kunda barcha moliya va budjet tizimida operatsiyalar elektron tarzda amalga oshirilmoqda.So'nggi yillarda,barcha budet tizimlarida samaradorlik oshishiga

[258] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Norqulova Qutlug`nigor Oloviddinovna (2026). Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va taqdim etish amaliyoti. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320346

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

sabab bo‘lgan yangidan yangi elektron platformalar va qonunlar ishlab chiqildi. Shu bilan bir qatorda , amalga oshirilayotgan islohotlar vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining birinchi darajali xarajatlarni, davlat dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish borasida javobgarligini oshirishni, manbasi aniq bo‘lmagan tadbirlarni amalga oshirmaslikni hamda budjet intizomini yanada qat’iylashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida budjet hisobi va buxgalteriya hisobi elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning hududiy bo`linmalarida “O`RIMVAT” dasturiy majmuasidan foydalanilmoqda. Ushbu dastur “UzASBO” dasturi bilan integratsiya qilingan. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda barcha budjet tashkilotlarida va budjet tizimida elektron baza tashkil etilgan va ular elektron tarzda ish yuritishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ–357-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi 492-sonli qarori talablariga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimi — “UzASBO” dasturiy majmuasi takomillashtirildi. 2023 yildan boshlab, “UzASBO 2” elektron platformasi ishlab chiqildi. 2023-yilning 4-choragi uchun budjet hisobi va hisoboti joriy yil talablari va shakllariga muvofiq amalga oshirildi. 2024-yil 1-yanvardan esa barcha budjet tashkilotlari tomonidan budjet hisobi va hisoboti yuritilishini ta’minlash uchun “UzASBO 2” dasturiy majmuasidan foydalanilishga o‘tildi.

“UzASBO 2” DM yordamida budjet tashkilotlari shtat jadvallarining qog’oz shaklidan voz kechilib, to’liq elektron shakllantirish tizimi yo’lga qo’yildi. Ushbu dastur quyidagi qulayliklarni taqdim etdi:

-budjet tashkilotlarining shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi elektronlashtirilib, shtat birliklari hamda lavozimlar tegishli me’yorlar asosida kiritildi, shuningdek, lavozimlar xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatoriga muvofiqlashtirildi;

-budjet tashkilotlari shtat birliklari ajratildi, to‘lov turlari hamda ish haqi to‘lovlarini hisoblashdan kelib chiqib guruhlarga toifalandi;


-to‘lov turlari standartlashtirildi, shuningdek, har bir to‘lov turlari va ularning chegaraviy miqdorlarining tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi ta’minlandi;

- amaldagi schotlar rejasi bekor qilinib, yangi “Yagona schyotlar rejasi” joriy qilindi;

- ikkita alohida dastur (main.uzasbo.uz va zp.uzasbo.uz) bitta dasturga birlashtirildi.


Hozirgi kunda O`zbekiston davlat sektorida moliyaviy hisobotlar “UzASBO 2” dasturiy majmuasi orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron

shaklda tegishliligi bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hududiy iqtisodiyot va moliya organlari yoki budjet mablag‘larini taqsimlovchiga taqdim etilmoqda.



2.1-rasm. “UzASBO 2” DM ga kirish


Hozirgi kunda “UzASBO 2” DM ni yuklab olib ishlatishga hojat yo‘q, hisobchilarimizga qulaylik yaratgan holda, dasturchilar ushbu “UzASBO 2” DM ga istalgan internet provayder orqali kirish imkoniyatini yaratganlar. Shunchaki, internet provayderga “UzASBO 2” DM so‘zini yozilsa, ushbu dastur ssilkasi chiqib keladi va o‘sha ssilka orqali dasturga kiriladi.



2-rasm. “UzASBO” DM ga kirish

Yuqoridagi rasmda biz dasturiy majmuaga kirish uchun ushbu tashkilot hisobchisining login va parolini yozamiz, shu orqali dasturga kiramiz.Ushbu oynada buxgalteriya hodimlaridan bosh hisobchi, uning yordamchisi va moliyaviy ishlar bo`yicha rahbar o`rinbosarining elektron kalitlari saqlanib turadi hamda login va parollari kiritiladi. Har bir mansabdor shaxs o`zining profiliga kira oladi.

Quyida tizimning ichini ko`rib chiqamiz:



2.3-rasm.”UzASBO 2” DMning asosiy oynasi

Yuqoridagi rasmda dasturiy majmuamizning asosiy oynasi ko‘rsatilgan. Ushbu oynaning chap tomonida barcha elektron amaliyotlarni bajarish uchun kerakli bo‘limlar bor. Jumladan, ma`lumotlar, hisobotlar, e-hisobotlar va boshqalar. Biz e-hisobotlar bo‘limini tanlaymiz. Ushbu bo`limda budjet tashkilotining choraklik va yillik moliyaviy hisobotlari jamlangan.

Hisobot davriga oid moliyaviy hisobot tanlanib, ma’lumotlar to‘ldirilgandan so‘ng, ushbu ma’lumotlarni saqlab mazkur oynadan chiqamiz va o‘tkazish tugmasini bosib moliyaviy hisobotimizni elektron jo‘natishga tayyorlaymiz. Elektron tarzda moliyaviy hisobotimizni jo‘natish uchun bosh hisobchi va tashkilot rahbarining elektron imzosi orqali tasdiqlab jo‘natamiz. Moliyaviy hisobotni tashkilotning yuqori turuvchi organiga jo‘natamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi to‘g‘risida buyruq. 18.01.2019-yil, ro‘yxat raqami 3124.

JQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti